

## 2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektorida inflyatsiya darajasi

2019 yilning avgustida iste'mol bozoridagi o'rtacha narxlar darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati 2,9 %ni tashkil etdi.




Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-avgust oylari davomida iste'mol bozoridagi tovarlar va xizmatlar narxi 8,2 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning avgust oyiga nisbatan respublika iste'mol sektoridagi o'rtacha narxlar darajasi 16,5 %ga oshgan.

*Taqqoslash uchun: 2018 yilning avgustida tovar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha 0,3 %ga qimmatlashib, 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 6,2 %ga, 2017 yilning avgustiga nisbatan esa 15,7 %ga qimmatlashgan.*

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlar indeksini dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



Izoh: shu va keyingi infografikalarda keltirilgan rim raqamlari oylarning tartib raqamini aks ettiradi.

2018 va 2019 yillarning yanvar-avgust davrlaridagi oylik narxlar o'zgarishi deyarli o'xshash tendensiyaga ega: yanvar oyidan may oyigacha o'rtacha narxlar darajasining ko'tarilganligi, keyingi ikki oy davomida esa narxlar arzonlashib, avgust oyida iste'mol narxlar indeksi 100 %lik ko'rsatkichdan yuqorini tashkil etgan. Biroq, taqqoslanayotgan davrlarning fevral-iyul oylaridagi narxlar o'zgarishi ko'rsatkichlari nisbatan bir-biriga yaqin bo'lib, yanvar va avgust oylaridagi tavofut sezilarli darajani tashkil etgan (2018 va 2019 yillarning yanvar oylarida 2,7 % ga qarshi 1,5 %, 2018 va 2019 yillarning avgust oylaridagi ko'rsatkichlar 0,3 %ga qarshi 2,9 %ni tashkil etgan).

O'tgan oyga nisbatan so'nggi 1 yil 8 oy davomidagi iste'mol narxlar indeksi o'zgarishi dinamikasi tahlillariga ko'ra, tovarlar va xizmatlar iste'mol narxlar indeksining o'sish sur'ati joriy yilning avgust oyida maksimal darajani tashkil etdi (2,9 %). Shuningdek, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar 2018 yilning yanvar, noyabr hamda dekabr oylarida ham qayd etilgan (2,7 %, 2,3 % va 2,1 %).

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, % o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning birinchi sakkiz oyi davomidagi iste'mol narxlari indeksi natijalariga asosan, taqqoslanayotgan davrlardagi o'rtacha narxlar darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari 2018 yilning may oyida (106,6 %), 2019 yilning avgust oyida (108,2 %) qayd etilgan.

Quyida yillik ko'rinishda 2018 yilning yanvaridan umumiy iste'mol narxlari indeksining oylik dinamikasi ko'rsatkichlari aks ettirilgan:

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, % o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Umumiy hisobda 2018 yilning yanvar oyidan 2019 yilning avgust oyiga qadar yillik iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarining minimal

darajasi 2019 yilning yanvar oyida (113,0 %), maksimal natija 2018 yilning yanvar oyida (120,1 %) qayd etilgan.

Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich dinamikasini o'rganish natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil davomidagi uzoq muddatli pasayish tendensiyasi hamda 2019 yilning yanvar-iyul oylarida narxlar nisbatan barqaror saqlanib, yillik iste'mol narxlari indeksi ko'tarilish tomon xarakterlandi (2019 yilning avgust oyidagi ko'rsatkich 16,5 %, 2019 yilning iyul oyida 13,5 %).

Yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishiga ko'ra, 2019 yilning avgust oyi natijalariga asosan oy davomida tovarlar narxlari o'rtacha 2,2 %, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 2,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 2,1 %ga ko'tarildi. Xizmatlar narxlari oy davomida 5,6 %ga qimmatlashdi.

### 2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %




*Taqqoslash uchun: 2018 yilning avgustida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida o'rtacha 0,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,3 %, xizmatlar esa 0,4 %ga qimmatlashgan.*

Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-avgust oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 6,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 7,8 %, xizmatlar 11,5 %ga qimmatlashgan.

Yillik ko'rinishda (2019 yil avgust oyi 2018 yilning avgust oyiga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 19,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 11,5 %, xizmatlar 18,6 %ga ko'tarildi.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
iste'mol narxlari indeksi, %**




Taqqoslash uchun: 2017 yilning dekabriga nisbatan 2018 yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 2,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 8,8 %, xizmatlar 8,9 %ga qimmatlashdi.

2017 yilning avgust oyi bilan taqqoslaganda, narxlarning o'sishi mos ravishda 15,4 %, 18,1 %, 10,9 %ni tashkil etdi.

2017 yilning dekabr oyiga nisbatan hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi 122,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 121,2 %, xizmatlar 129,1 %ni tashkil etgan. Ushbu davr mobaynida umumiy ko'rsatkich 23,7 %ga ko'tarilgan.



**2017 yilning dekabr oyiga nisbatan  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
tovar va xizmatlar asosiy guruhlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, o'sish sur'ati %**




2018 yilning yanvar oyidan 2019 yilning avgust oyiga qadar oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati<sup>1</sup> 1,0 %, xizmatlar narxlari o'sish sur'ati esa 1,3 %ni tashkil etgan.

Har bir yirik guruhning salmoq vaznini inobatga olgan holda narxlar o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi umumiy indeksning ko'tarilishiga

<sup>1</sup> utgan oyga nisbatan yarim yillikning har bir urganilaetgan oyidaagi narx indekslari ushishining urtacha geometrik kursatkichi sifatiida aniqlanadi.

1,0 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlari 0,7 f.d. va xizmatlar 1,2 f.d.da ta'sir ko'rsatgan.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining narxlari o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.**




*Taqqoslash uchun: 2018 yilning avgust oyida oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, xizmatlar narxlari va tariflarining ko'tarilishi hamda ularning oy davomidagi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga ta'siri bo'yicha tenglikni tashkil etgan (0,1 f.d.).*

Shu bilan bir qatorda, 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi umumiy ko'rsatkichga 3,0 f.d., nooziq-ovqat mahsulotlar 2,7 f.d., xizmatlar 2,5 f.d.da ta'sir etgan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarining indeksidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan



O'tgan sakkiz oy davomida sezilarli darajadagi inflyatsion bosim joriy yilning may oyidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi natijasida sodir bo'ldi (3,4 f.d.). Nooziq-ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar narxlarining sezilarli darajada qimmatlashishi va umumiy indeksga sezilarli darajadagi ta'siri avgust oyida kuzatildi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 yilning avgust oyidagi iste'mol narxlarining indeksi oziq-ovqat mahsulotlari (1,2 f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlar (3,1 f.d.) hamda xizmatlar (1,9 f.d.) narxlarining qimmatlashishi ta'sirida vujudga kelgan.

Salmoq ko'rsatkichlari jihatidan 2019 yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi va uning umumiy iste'mol narxlarining indeksiga ta'siri 2018 yilning avgust oyidagi ko'rsatkichlarga nisbatan birmuncha past bo'lgan (33,9 %ga qarshi 40,0 %). Aynan shu kabi o'xshash holat nooziq-ovqat mahsulotlarida ham kuzatilgan (24,5 %ga

qarshi 32,6 %). Natijada, 2019 yilning avgust oyida ta'sir jihatdan ustunlik xizmatlar tomonga siljigan bo'lsa (41,6 %), o'tgan yilning mos oyidagi xizmatlarning umumiy indeksdagi ta'sir ulushi faqatgina 27,4 %ni tashkil etgan.





### Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ta'siri ulushi, %

o'tgan oyga nisbatan

2018 yil  
avgust

2019 yil  
avgust



○ oziq-ovqat mahsulotlari    ○ nooziq-ovqat mahsulotlari    ○ xizmatlar

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 va 2018 yillarning avgust oylarida tovarlar va xizmatlarning yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishi tarkibida iste'mol narxlari indeksining o'sishidagi ta'siriga ko'ra, xizmatlarning ulushi biroz pasayib (30,2 %ga qarshi 30,9 %), bu vaqtda asosiy qayta taqsimlanish oziq-ovqat mahsulotlari (36,8 %ga qarshi 19,1 %) hamda nooziq-ovqat mahsulotlar (33,0 %ga qarshi 50,0 %) o'rtasida vujudga keldi.





Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari  
o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi  
ta'siri ulushi, %

o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan

2018 yil  
avgust

2019 yil  
avgust



○ oziq-ovqat mahsulotlari    ○ nooziq-ovqat mahsulotlari    ○ xizmatlar

Yillik davrdagi (2019 yil avgust 2018 yilning avgust oyiga nisbatan) umumiy iste'mol narxlari indeksi tahlillari quyidagilarni ko'rsatdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ushbu davrdagi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga 8,6 f.d.da ta'sir etgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining qimmatlashishi umumiy ko'rsatkichning 3,9 f.d.da ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Xizmatlar esa qo'shimcha ravishda yana 4,0 f.d.da ortishiga zamin yaratdi.

Salmoq ko'rsatkichlari bo'yicha oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxlari o'sishi hamda ularning ta'siri nisbati mos ravishda 52,1%, 23,7% va 24,2% ni tashkil etdi.


*Taqqoslash uchun: o'tgan yilning avgust oyiga nisbatan 2018 yilning avgust oyida umumiy iste'mol narxlari indeksi oziq-ovqat (6,8 f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlari (6,5 f.d.) va xizmatlar (2,4 f.d.) narxlarining ko'tarilishi natijasida tashkil topgan.*

*Salmoq ko'rsatkichlari bo'yicha nisbiylik mos ravishda 43,3 %, 41,4 % va 15,3 %dan iborat.*



## 2019 yilning avgust oyida asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ta'siri ulushi

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



○ oziq-ovqat mahsulotlari      ○ nooziq-ovqat mahsulotlari      ○ xizmatlar

### Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 2,3 %ga qimmatlashib, umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga 1,0 f.d.da ta'sir etdi.

2019 yil boshidan ushbu guruh tovarlari narxlari o'rtacha 6,9 %ga qimmatlashib, ushbu davr mobaynidagi narxlar indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,8 %ni tashkil etgan.

Yillik ko'rinishda (2019 yilning avgust oyi 2018 yilning avgustiga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 19,7 %ga ko'tarilgan.


*Taqqoslash uchun: o'tgan oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 1,3 %ga arzonlashib, umumiy ko'rsatkichning 0,6 f.d.da pasayishiga zamin yaratgan.*

*2019 yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 4,6 %ga qimmatlashib, yillik ko'rinishdagi narxlarning o'sish sur'ati 17,4 %ni tashkil etgan.*




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

**2019 yil avgust**



**2018 yil avgust**



Joriy yilning iyun va iyul oylaridagi narxlarning pasayishidan so'ng avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari yana qimmatlashdi (oy davomida 2,3 %). Yoz mavsumining birinchi ikki oyi davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 3,1 %ga pasayishi tom ma'noda meva-sabzavot guruhi mahsulotlarining mavsumiy omillar natijasida arzonlashishi bilan bevosita bog'liq.

*Taqqoslash uchun: 2018 yilning iyun-iyul oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 4,1 %ga arzonlashib, avgust oyida ushbu guruh tovarlari oy davomida 0,3 %ga qimmatlashdi.*




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 y.

2019 y.

o'tgan oyga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishi dinamikasi 2018 va 2019 yillarning yanvar-avgust oylaridagi o'xshash tendensiyalarni takrorlaydi: yanvardan maygacha narxlar darajasi ko'tarilib (o'sish sur'ati 2018 yil may oyida 6,6 % hamda 2019 yilning may oyida 7,9 %), so'nggi ikki oy davomida narxlarning o'sishi birmuncha sekinlashgan (2018 yilning iyulida 2,3 % va 2019 yilning iyul oyida 4,6 %gacha) va avgust oyida yana ko'tarilish tomon yuz tutgan (2018 yilning avgust oyida 2,6 %, 2019 yilning avgustida 6,9 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 y.

2019 y.


o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan



Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlariga iste'mol narxlari indeksi dinamikasini o'rganish natijalariga ko'ra, yillik ko'rinishda 2018 va 2019 yillarning yanvar-avgust oylari uchun ushbu davrdagi mazkur guruh tovarlari narxlarining o'zgarishi ko'p qirrali tendensiyalarga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, 2018 yilning yanvar oyida o'sishning eng yuqori ko'rsatkichiga erishgandan so'ng (26,8 %), yillik iste'mol narxlari indeksi pastga tomon yo'nalgan va 2018 yil avgust oyidagi o'sish sur'ati 15,4 %ni tashkil etgan. 2019 yilning xuddi shu davrida, yanvar oyida, aksincha, iste'mol narxlari indeksining minimal o'sishi darajasi qayd etilgan bo'lib (14,1 %), keyinchalik 19,7 %gacha ko'tarildi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %



Joriy yilning avgustida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan oy davomida go'sht, parranda go'shti va baliq (6,3 %), tuxum (3,5 %) hamda alkogolsiz ichimliklar (3,1 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: o'tgan oyida narxlarning o'sishida yetakchi o'rinlar alkogolsiz ichimliklar (3,0 %) hamda go'sht mahsulotlari (2,8 %) narxlariga taalluqli bo'lgan.

O'tgan yilning avgustida oy davomida narxlarning ko'tarilishi bo'yicha yuqori o'rinlar tuxum (2,2 %), go'sht, parranda go'shti va baliq (1,1 %), sut hamda non mahsulotlariga (0,6 %dan) tegishli bo'lgan.

Quyida 2019 yilning avgust oyi uchun asosiy guruhlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi taqdim etilgan:

**2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining  
iste'mol narxlarini indeksi, %**


o'tgan oyga nisbatan



Oy davomida umumiy ovqatlanish narxlarini 2,6 %ga qimmatlashdi. Shuni qayd etish lozimki, oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarini orasida narxlarining arzonlashishi faqatgina meva-sabzavotlar guruhida kuzatilgan (0,5 %). Biroq, ushbu guruh mahsulotlari narxlarining o'zgarishi bir maromda kechmaganligi navbatdagi infografika ma'lumotlarida namoyish etilgan:

2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
asosiy turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan
















Oy davomida pomidor (12,7 %), tarvuz (10,7 %) va piyoz (9,9 %) narxlari boshqa mahsulotlarga nisbatan yuqori darajada arzonlashdi. Shu bilan bir qatorda bodring (27,6 %), karam (16,9 %) hamda sarimsoq (15,1 %) narxlari esa sezilarli darajada qimmatlashdi.

2018 yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning qimmatlashishi borasidagi yetakchi pog'onalar piyoz (2,2 baravardan ziyodroq), sarimsoq (45,5 %) va sabzi (31,3 %) mahsulotlariga tegishlidir.

Shu bilan bir qatorda, yil boshidan bodring narxlari 79,2 %, pomidor 70,1 %, tarvuz 25,6 %, karam 11,7 %, nok 6,1 % va kartoshka 4,6 %ga arzonlashgan.

**2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
asosiy turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi, %**

		2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning avgustiga nisbatan
	olma	103,8	92,1
	nok	93,9	100,4
	banan	116,8	125,0
	uzum	110,9	89,3
	sitrus	121,0	116,6
	quruq mevalar	107,2	109,8
	tarvuz	74,4	93,6
	qovun	102,9	116,1
	karam	88,3	183,7
	piyoz	202,5	244,1
	lavlagi	103,2	107,5
	sabzi	131,3	165,3
	bodring	20,8	127,1
	pomidor	29,9	76,4
	sarimsoq	145,5	117,7
	kartoshka	95,4	169,1

Yillik davriylikda piyoz (2,4 baravar), karam (1,8 baravar), kartoshka va sabzi (1,7 baravar), bodring va banan (1,3 baravar) narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashdi. O'tgan yilning avgust oyiga nisbatan pomidor (23,6 %), olma (7,9 %), uzum (10,7 %) hamda tarvuz (6,4 %) narxlarining arzonlashganligi qayd etilgan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhi narxlarining o'zgarishi taqdim etilgan:

**2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining  
iste'mol narxlarini indeksi, %**

**o'tgan yilning dekabriga nisbatan**



**Non mahsulotlari**

**107,7 %**



**Go'sht, parranda  
go'shti va baliq**

**114,9 %**



**Tuxum**

**94,3 %**



**Sut  
mahsulotlari**

**111,4 %**



**Yog'  
va moylar**

**104,1 %**



**Mevalar, sabzavotlar  
va kartoshka**

**95,6 %**



**Shakar, choy va  
boshqa mahsulotlar**

**105,8 %**



**Alkogolsiz  
ichimliklar**

**110,5 %**



**Spirтли  
ichimliklar**

**109,4 %**

2019 yil boshidan o'tgan davr mobaynida go'sht, parranda go'shti va baliq narxlarini mahsulotlari o'rtacha 14,9 %, sut mahsulotlari 11,4 %, alkogolsiz va spirтли ichimliklar mos ravishda 10,5 % va 9,4 %, non mahsulotlari 7,7 %, shakar, choy va boshqa mahsulotlar 5,8 %ga qimmatlashdi. Sakkiz oy davomida umumiy ovqatlanish narxlarining

14,4 %ga ko'tarilganligi ko'p jihatdan oziq-ovqat mahsulotlari umumiy narxlarining qimmatlashishi, xarajatlarning ko'payishi, shuningdek, gaz hamda elektr-energiya tariflarining oshishi bilan bog'liq.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning arzonlashishi faqatgina tuxum (5,7 %ga) hamda meva-sabzavot mahsulotlarida (4,4 %ga) qayd etilgan.

Quyida alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narx indekslari dinamikasi keltirilgan:



Joriy yilning sakkiz oyi davomida guruch narxlarini 14,9 %ga qimmatlashgan. Narxlarining minimal darajada qimmatlashganligi may oyida kuzatilgan bo'lsa (0,7 %), yanvar va avgust oylarida narxlar sezilarli darajada ko'tarilgan (2,4 % va 2,9 %).

*Ma'lumot uchun: oy davomida guruch narxlarini boshqa hududlarga nisbatan Buxoro viloyatida yuqoriroq darajada (4,6 %), birmuncha past sur'atda esa Sirdaryo viloyatida (1,9 %) qimmatlashdi.*

*Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-avgust oylari davomida guruch narxlarini sezilarli darajada Xorazm viloyatida (23,7 %), minimal ko'rsatkich esa Jizzax viloyatida (8,6 %) ro'yxatga olingan.*

Bug'doy uni narxlari o'tgan sakkiz oy davomida 5,3 %ga qimmatlashdi. Oy davomida narxlarning sezilarli darajada oshganligi joriy yilning yanvar (1,6 %) hamda avgust (1,3 %) oylarida kuzatilgan.

Ma'lumot uchun: oy davomida bug'doy uni narxlarining qimmatlashishi diapazoni 1,1 %dan (Samarqand viloyati) 2,9 %gacha (Qoraqalpog'iston Respublikasi) bo'lgan oraliqni tashkil etgan. Buxoro, Sirdaryo va Xorazm viloyatlaridagi narxlar darajasi barqaror saqlangan.

2019 yilning yanvar-avgust oylari davomida bug'doy uni narxlari maksimal darajada Toshkent shahrida (11,7 %), minimal sur'atda Xorazm viloyatida (0,9 %) qimmatlashgan.




So'nggi ikki oy davomida mol va qo'y go'shti narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan. Mol go'shti (suyaksizdan tashqari) ikki oy mobaynida 12,7 %, suyaksiz mol go'shti 11,6 %, qo'y go'shti 10,8 %ga qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: so'nggi oy davomida mol go'shti (suyaksizdan tashqari) narxlari yuqori darajada Samarqand viloyatida (15,7 %), past sur'atda esa Xorazm viloyatida (4,3 %) oshgan. Suyaksiz mol go'shti va qo'y go'shti narxlari sezilarli ravishda Samarqand viloyatida qimmatlashgan (15,3 % va 15,9 %).

Aholi talabining o'sishi va mavsumiy omillar bir qatorda, narxlarning olti oylik pasayishidan so'ng parranda go'shti va tuxum narxlari yana ko'tarilishiga olib keldi. So'nggi bir oy ichida parranda go'shti (son qismlardan tashqari) 4,2 %, tovuq boldiri va son qismlari 3,1 %, tuxum 3,5 %ga qimmatlashdi. Shunga qaramay, 2018 yil oxiridagi narxlarga nisbatan avgust oyida parranda go'shti (son qismlaridan tashqari) narxlari darajasi atigi 0,8 %, tuxum esa 5,7 %ga past bo'ldi.



**2019 yilning yanvar-avgust oylarida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
parranda go'shti va tuxum mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %**



○ o'tgan oyga nisbatan

■ 2018 yilning dekabriga nisbatan

*Ma'lumot uchun: 2019 yilning avgustida parranda go'shti (son qismlaridan tashqari) mahsulotlari narxlarining oy davomida qimmatlashishi mamlakatning barcha hududlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan narxlar Andijon viloyatida maksimal darajada (9,7 %), minimal sur'atda Namangan viloyatida (1,4 %) qimmatlashgan.*

*Tovuq boldiri va son qismlari narxlari oy davomida sezilarli darajada Xorazm viloyatida (7,1 %), pastroq sur'atlarda esa Samarqand viloyatida (0,7 %) ko'tarilgan.*


*Hududlar kesimidagi uzoq muddatli narxlar o'zgarishi dinamikasi notekis bo'lib qolmoqda. 2018 yilning oxiriga nisbatan parranda go'ti (son qismlaridan tashqari), shuningdek, tovuq boldiri va son qismlari narxlari Surxondaryo viloyatida yuqori darajada qimmatlashgan bo'lsa (7,1 %*

va 8,5 %), Sirdaryo viloyatida esa aksincha, narxlarning minimal darajada pasayganligi kuzatilgan (7,6 % va 4,2 %).

Avgust oyida tuxum narxlari barcha hududlarda qimmatlashgan. Narxlarning yuqori darajada oshganligi Buxoro viloyatida (7,3 %), past sur'atlarda esa Toshkent viloyatida (1,0 %) qayd etilgan. 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan narxlar arzonlashishining eng quyi ko'rsatkichi Xorazm viloyatida ro'yxatga olingan bo'lsa (17,2 %), Farg'ona viloyatida esa aksincha, narxlarning 3,2 %ga qimmatlashganligi kuzatilgan.



2019 yilning yanvar-avgust oylarida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
sut va shakar mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %



○ o'tgan oyga nisbatan

■ 2018 yilning dekabriga nisbatan

Avgust oyida sut narxlari respublika bo'yicha o'rtacha 0,9 %ga, o'tgan yilning oxiriga nisbatan esa 13,7 %ga qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: oy davomida sut narxlarining qimmatlashishi 5 ta hududda qayd etilgan: Farg'ona viloyatida 4,2 %, Buxoro va Toshkent viloyatlarida 1,5 %, Toshkent shahrida 1,4 % va Xorazm viloyatida 1,1 %. Yil boshidan buyon narxlarning sezilarli darajada oshganligi Xorazm viloyatida (22,8 %), boshqa hududlarga nisbatan narxlarning pastroq darajada ko'tarilishi esa Toshkent shahrida qayd etilgan (3,8 %).

Shakar narxlari sakkiz oy davomida 4,2 %ga qimmatlashib, jumladan avgust oyida narxlar 0,5 %ga oshgan.

*Ma'lumot uchun: shakar narxlarining yil boshidan maksimal darajada qimmatlashganligi Surxondaryo viloyati (7,4 %) hamda Toshkent shahrida qayd etilgan (7,8 %).*










Yillik ko'rinishda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari uchun 2019 yilning avgust oyidagi narxlar o'zgarishi quyidagicha ko'rinishda namoyish etilgan:

**2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %**



O'tgan oydagi kabi yillik ko'rinishda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi bo'yicha yetakchi uchlikni non (26,8 %), meva-sabzavot mahsulotlari (25,9 %) hamda tuxum (21,9 %) narxlari band etgan. 2018 yilning avgust oyi bilan taqqoslaganda guruch narxlari 1,3 baravarga, sut 26,0 %, qo'y go'shti 20,1 %, bug'doy uni 19,5 %, suyaksiz mol go'shti 19,3 %, boshqa turdagi mol go'shti 23,3 %, tovuq boldiri va son qismlari 12,5 %, boshqa turdagi parranda go'shti 17,5 %, shakar 5,2 %ga qimmatlashgan.

2019 yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeksi o'shishidagi ta'siri, %

	Oy davomida narx o'zgarishi, %	Oy davomidagi umumiy indeks o'sishiga "bevosita" ta'siri, f.d.
 Bug'doy uni	+1,3 %	+0,05 f.d.
 Guruch	+2,9 %	+0,04 f.d.
 Mol go'shti (suyaksizdan tashqari)	+8,3 %	+0,43 f.d.
 Suyaksiz mol go'shti	+7,5 %	+0,03 f.d.
 Qo'y go'shti	+7,3 %	+0,07 f.d.
 Parranda go'shti (son qismlardan tashqari)	+4,2 %	+0,02 f.d.
 Sut mahsulotlari	+1,0 %	+0,03 f.d.
 Tuxum	+3,5 %	+0,03 f.d.
 Umumiy ovqatlanish	+2,6 %	+0,05 f.d.

**0,76 f.d.**


Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy indeks o'sishiga ko'rsatgan ta'siri tahlili shuni ko'rsatadiki, joriy yilning avgust oyidagi non mahsulotlari narxlarining

oshishi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga 0,14 f.d., go'sht, parranda go'shti va baliq 0,67 f.d., umumiy ovqatlanish 0,05 f.d., sut mahsulotlari, tuxum, yog' va moylar 0,03 f.d.dan, alkogolsiz ichimliklar, shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 0,02 f.d.dan ta'sir etgan.



**2019 yilning yanvar-avgust oylarida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol  
narxlarida oziq-ovqat mahsulotlari  
asosiy guruhlari narxlarini o'zgarishi, f.d.**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 yil avgustida ketma-ket ikki oy davomida iste'mol narxlarining yig'ma indeksleri tuzilmasidagi yetakchi o'rinni go'sht mahsulotlari egallab kelmoqda (1,58 f.d.). Ta'sir darajasi bo'yicha keyingi o'rinlar non (0,62 f.d.) va sut mahsulotlari (0,38 f.d.) guruhiga tegishlidir.


## Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning avgust oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 2,1 %ga qimmatlashishi oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksining o'sishiga 0,7 f.d.da ta'sir etdi.




### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

#### 2019 yil avgust



#### 2018 yil avgust



Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-avgust oylari davomida ushbu guruh mahsulotlari narxlari 7,8 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning avgust oyiga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari yillik o'sish sur'ati 11,5 %ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 yil

2019 yil

o'tgan oyga nisbatan



2018 va 2019 yillarning birinchi sakkiz oyi davomida nooziq-ovqat tovarlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasini o'zaro taqqoslaganda quyidagi ko'rinish namoyon bo'ldi. 2018 yilda ushbu guruhning iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarining eng yuqori natijalari yanvar oyida qayd etilgan bo'lsa (102,3 %), minimal ko'rsatkich esa avgust oyida ro'yxatga olingan (100,3 %). 2019 yilda esa maksimal indeks avgust oyida kuzatilgan bo'lib (102,1 %), minimal ko'rsatkich iyul oyida ro'yxatga olingan (100,4 %).

Nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlari indeksining hisoblash natijalariga ko'ra, 2018 yilning yanvar-avgust oylarida o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,1 %ni, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida esa 0,9 %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning taqqoslanayotgan davrlaridagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari o'zgarishi dinamikasi narxlarning o'sishi bo'yicha nisbatan o'xshash tendensiyani takrorlaydi. Biroq, 2018 yilning yanvar oyida narxlarning yuqori darajada oshganligini hisobga olsak, 2018 yilning yanvar-avgust oylaridagi umumiy narxlar o'sishi 2019 yilning mos davridagi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori bo'ldi (108,8 %ga qarshi 107,8 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 yil

2019 yil

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yillik natijalar bo'yicha 2019 yilning sakkiz oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksidagi minimal ko'rsatkich iyul (109,5 %) oyida, maksimal natija esa avgust (111,5 %) oyida qayd etilgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 yil

2019 yil

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2019 yilning avgust oyida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining narxlarning qimmatlashishiga asosan avtomobillar uchun yoqilg'i narxlarining 14,7 % (jumladan, benzin 15,5 %, metan 19,5 %, propan 0,6 %), bundan tashqari maishiy ehtiyojlar uchun sarflanadigan ko'mir narxining 10,0 %ga ko'tarilishi sabab bo'ldi. Bu esa umumiy ko'rsatkichning ortishiga 0,44 f.d.da ta'sir etdi.



2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste'mol narxlarini indeksi, %



Shuningdek, bir foizlik ko'rsatkichdan yuqori darajada zargarlik buyumlari (4,8 %), kanselyariya tovarlari (3,1 %), avtomobillar uchun ehtiyot qismlar (1,8 %), asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari, dori-darmonlar (1,6 %), madaniy mollar (1,3 %) narxlarining qimmatlashganligi qayd etilgan.

*Ma'lumot uchun: milliy valyuta qiymatining pasayishi import qilinadigan xalq iste'moli tovarlari narxlarining o'sishiga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xom ashyo importi narxlarining oshishiga olib kelib, bu esa yoqilg'i-moylash mahsulotlarining narxlarini oshishi bilan birga iste'mol sektorida narxlarning umumiy o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, 15 iyuldan 15 avgustgacha milliy valyutaning AQSh dollari qiymatiga nisbatan 3,5 %ga, yevroga nisbatan 3,1 %ga pasaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyuldagi "Yoqilg'i-energetika resurslarining narxlarini va tariflarini o'zgartirish to'g'risida"gi 633-son qaroriga asosan, AI-80 benzini narxi 12,5 %ga oshdi va AI-91 benzini narxlarini birja savdolari orqali o'rnatila boshladi.*

Joriy yilning avgust oyida kiyim-kechak va oyoq kiyim narxlarining qimmatlashishi oy davomidagi umumiy iste'mol narxlarini indeksining

ko'tarilishiga 0,07 f.d.da, dori-darmonlar 0,05 f.d., asosiy turdagi maishiy mahsulotlar va elektr uskunalari, zargarlik buyumlari 0,03 f.d.dan, gazlama va eshilgan iplar, qurilish materiallari, shaxsiy gigiyena vositalari 0,01 f.d.dan ta'sir etdi.

**2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarini narxlarini o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeksi o'shishidagi ta'siri, %**


	Oy davomidagi narx o'zgarishi, %	Oy davomidagi umumiy indeks o'sishiga "bevosita" ta'siri, f.d.
Kiyim-kechak	+0,6 %	+0,04 f.d.
Oyoq kiyim	+0,8 %	+0,03 f.d.
Mato va eshilgan iplar	+0,6 %	+0,01 f.d.
Qurilish materiallari	+0,3 %	+0,01 f.d.
Shaxsiy gigiyena tovarlari	+0,6 %	+0,01 f.d.
Benzin	+15,5 %	+0,21 f.d.
Metan	+19,5 %	+0,16 f.d.
Ko'mir	+10,0 %	+0,07 f.d.
Dori-darmonlar	+1,6 %	+0,05 f.d.
Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari	+1,6 %	+0,03 f.d.
Zargarlik buyumlari	+4,8 %	+0,03 f.d.

**0,65 f.d.**

2018 yilning oxiriga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarini orasida iste'mol narxlarini indeksini hisoblashda umumiy tovarlar va xizmatlar to'plamida birmuncha yirik salmoq vaznga ega guruhlardan

avtomobillar uchun yoqilg'i (21,2 %), madaniy mollar (10,7 %), gazlama va eshilgan iplar (9,1 %) hamda shaxsiy gigiyena vositalari (8,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Boshqa guruhlar orasida bosma nashr mahsulotlari (19,8 %), yuvish va tozalash vositalari (11,8 %), aloqa (11,5 %), asosiy turdagi maishiy mahsulotlar va elektr uskunalari (11,1 %) narxlari birmuncha yuqori sur'atlarda qimmatlashdi.



2018 yilning oxiriga nisbatan joriy yilning avgust oyida umumiy ko'rsatkichning o'sishiga ta'siri bo'yicha yetakchilik navbatdagi guruhlar hissasiga to'g'ri keladi: kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,67 f.d.), shuningdek, avtomobillar uchun yoqilg'i mahsulotlari (0,54 f.d.).

Yillik ko'rinishda 2019 yil avgust oyi uchun nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarining iste'mol narxlaridagi o'zgarishlar quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi, %**

Nomi	2019 yil avgust 2018 yilning avgustiga nisbatan
Kiyim-kechak	112,0
Oyoq kiyim	111,0
Gazlama va eshilgan iplar	113,0
Qurilish materiallari	104,6
Mebel	109,0
Gilam va gilam mahsulotlari	111,7
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	111,9
Asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlar	114,1
Oshxona anjomlari	109,5
Yuvish va tozalash vositalari	115,4
Avtomobillar uchun yoqilg'i	128,4
Madaniy mollar	112,4
Aloqa vositalari	117,0
Kitob, gazeta va jurnallar	120,3
Shaxsiy gigiyena vositalari	111,7
Tamaki mahsulotlari	117,8
Qishloq xo'jaligi anjomlari	109,2

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan 2019 yilning avgust oyida avtomobillar uchun yoqilg'i (28,4 %), bosma nashr mahsulotlari

(20,3 %), tamaki mahsulotlari (17,8 %), aloqa vositalari (17,0 %) narxlarining sezilarli ravishda ko'tarilishi kuzatilgan.


### Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning avgust oyida aholi uchun pullik xizmatlar tariflari 5,6 %ga qimmatlashib, oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishiga 1,2 f.d.da ta'sir etdi.




#### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

#### 2019 yil avgust




#### 2018 yil avgust



2019 yil boshidan ushbu sohadagi tariflar o'rtacha 11,5 %ga ko'tarildi.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan tariflarning o'sish sur'ati 18,6 %ni tashkil etdi.

2019 yil boshidan o'tgan davr mobaynida tariflarning oy davomidagi maksimal darajada qimmatlashishi joriy yilning avgustida kuzatildi.




2018 va 2019 yillarning yanvar-avgust oylaridagi tariflar o'sishini o'zaro taqqoslasak, 2019 yilning yanvar-iyul oylaridagi natijalardan farqli ravishda joriy yilning avgust oyidagi narxlarning ko'tarilishi o'tgan yilning yanvar-avgust oylaridagi tariflarning ko'tarilishiga nisbatan yuqori bo'ldi (11,5 % qarshi 8,9 %).

Ushbu guruhdagi inflyatsiyaning asosiy omillari sifatida uy-joy kommunal xizmatlari tariflarining ko'tarilishi bo'ldi. Mazkur sohada tariflarning o'sishi oy davomidagi inflyatsiya darajasiga "to'g'ridan-to'g'ri" 0,97 f.d. da ta'sir etdi.



2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi  
bo'yicha alohida turdagi aholi uchun pullik  
xizmat ko'rsatish iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



Oy davomida 16,0 %ga qimmatlashgan uy-joy kommunal xizmatlaridan tashqari, bir foizlik ko'rsatkichdan yuqori darajada yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (4,6 %), maishiy xizmatlar (1,6 %), sport muassasalari xizmatlari (1,2 %) narxlarining ko'tarilganligi qayd etilgan.

2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi iste'mol tariflarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'shidagi ta'siri

	Oy davomidagi tarif o'zgarishi, %	Oy davomidagi umumiy indeks o'sishiga "bevosita" ta'siri, f.d.	
Elektroenergiya	+18,0 %	→ +0,43 f.d.	} 1,03 f.d.
Tabiiy gaz	+18,8 %	→ +0,45 f.d.	
Suyultirilgan gaz	+17,9 %	→ +0,02 f.d.	
Issiqlik ta'minoti	+9,5 %	→ +0,01 f.d.	
Issiq suv ta'minoti/ sovuq suv ta'minoti va kanalizatsiya	+9,0 % +8,2 %	→ +0,06 f.d.	
Shahar avtobusida yo'l haqi	+7,1 %	→ +0,04 f.d.	
Metroda yo'l haqi	+16,7 %	→ +0,02 f.d.	

Narxlari tartibga solinuvchi tariflar narxlarining oy davomidagi qimmatlashishi natijasida "to'g'ridan-to'g'ri" inflyatsiya ko'rsatkichiga 1,03 f.d.da ta'sir etdi. Keyingi davrlarda esa tovarlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining oshishi hisobiga narxlarning ko'tarilishiga "bilvosita" ta'siri kutilmoqda.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyuldagi "Yoqilg'i-energetika resurslarining narxлари va tariflarini o'zgartirish to'g'risida"gi 633-son qaroriga asosan, elektrenergiya hamda gaz narxlarining oshgan tariflari joriy qilindi. Unga ko'ra, elektrenergiya tariflari 18,0 % tarmoq gaz 18,8 %, suyultirilgan gaz 17,9 %ga qimmatlashib, umumiy iste'mol narxлари indeksi o'sishiga 0,90 f.d.da ta'sir etdi.*

*Mahalliy hokimiyat organlarining qarorlariga asosan mamlakatning deyarli barcha hududlarida sovuq suv ta'minoti va kanalizatsiya tariflari qimmatlashdi. Ushbu xizmat turlarining respublika bo'yicha o'rtacha narxining 8,2 %ga ko'tarilishi umumiy inflyatsiya ko'rsatkichning o'sishiga yana qo'shimcha 0,03 f.d.da ta'sir etdi.*

*Respublika bo'yicha issiq suv hamda issiqlik ta'minoti narxlarining o'rtacha 9,0 % hamda 9,5 %ga oshganligi inflyatsiya darajasining yana 0,04 f.d.da ko'tarilishini ta'minladi.*

Navbatdagi jadvalda o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan hamda yillik ko'rinishda aholi uchun asosiy turdagi pullik xizmatlar guruhining narx indeksleri o'zgarishi keltirilgan:

### 2019 yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida turdagi xizmatlarning iste'mol narxлари indeksi, %

Xizmatlar nomi	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning avgustiga nisbatan
Maishiy xizmatlar	112,7	117,6
Uy-joy kommunal xizmatlari	117,5	129,6
Yo'lovchi transporti xizmatlari	108,2	114,8
Aloqa xizmatlari	104,3	104,8
Madaniyat muassasalari xizmatlari	105,5	110,0
Sport xizmatlari	108,2	110,7
Dam olish xizmatlari	110,7	112,0
Tibbiy xizmatlar	106,8	110,8

Xizmatlar nomi	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning avgustiga nisbatan
Ta'lim xizmatlari	107,5	121,7
Maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari	120,5	120,5

Kuzatilayotgan aholi uchun pullik xizmatlarning guruhlarida orasida o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narxlari o'sishi borasidagi yetakchilik maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari (20,5 %) hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, uy-joy kommunal (17,5 %), maishiy (12,7 %) hamda dam olish xizmatlari (10,7 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Yillik tahlil natijalariga ko'ra, narxlarning oshishidagi yetakchilik uy-joy kommunal xizmatlari (29,6 %) hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlari (21,7 %), maktabgacha ta'lim muassasalari (20,5 %) va maishiy turdagi xizmatlar (17,6 %) narxlarining boshqalariga nisbatan sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu davrda iste'mol narxlari yig'ma indeksining o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra, xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinlarni uy-joy kommunal (1,06 f.d.), maishiy (0,45 f.d.), yo'lovchi tashish transporti (0,29 f.d.) hamda maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari (0,21 f.d.) band etgan.

#### Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74